



EZGU FIKR, EZGU SO‘Z, EZGU AMAL!

ILM SARCHASHMALARI

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETINING
ILMIY-METODIK JURNALI**



2018-3

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Ilm sarchashmalari

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA va FALSAFA hamda FIZIKA-MATEMATIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

3.2018

**научно-методический журнал
Издаётся с 2001 года**

Urganch – 2018

“ILM SARCHASHMALARI”
ilmiy-metodik jurnal

Bosh muharrir dotsent **Ro‘zimboy YO‘LDOSHEV**

	TAHRIR HAY’ATI:
JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN	ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori, ABDULLAYEV Ikrom, biologiya fanlari doktori, ABDULLAYEV Ilyos, iqtisod fanlari doktori, ANNAMURATOVA Svetlana, pedagogika fanlari doktori, professor, ALEUOV O‘serboy, pedagogika fanlari doktori, professor, BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor, DADABOYEV Hamidulla, filologiya fanlari doktori, professor, DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari), DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor, ERMATOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, HASANOV Oqnazar, fizika-matematika fanlari doktori, professor, HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, JO‘RAYEV Mamatqul, filologiya fanlari doktori, professor, JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor, JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor, MAHMUDOV Madrahim, tarix fanlari doktori, professor, NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor, OLLAMOV Yarash, yuriduk fanlari nomzodi, dotsent, OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor, PRIMOV Azamat, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, QIDIRNIYOZOV Muhammadsharif, tarix fanlari doktori, professor, QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor, QURAMBOYEV Karimboy, filologiya fanlari doktori, professor, RO‘ZIMBOYEV Safarboy, filologiya fanlari doktori, professor, RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor, RO‘ZMETOV Baxtiyor, iqtisod fanlari doktori, professor, SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik, SAGDULLAYEV Anatoliy, tarix fanlari doktori, professor, SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor, SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor, XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (mas’ul kotib), YAXSHIMURODOV Alisher, fizika-matematika fanlari doktori, YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor, G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, SHUKURLAYEV Qodir, tibbiyot fanlari doktori, professor.
JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI	
228 3 (129)	

MUASSIS: Urganch davlat universiteti. Jurnal O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Xorazm viloyat boshqarmasida 2011-yil 23-dekabrda ro‘yxatdan o‘tgan. Guvohnoma №13-020.

Oygul Matqurbonova (UrDU)
**OMON MATJON SHE'RLARIDA OKKAZIONALIZM VA SHEVAGA XOS
 SO'ZLARNING ISHLATILISHI**

Annotatsiya. Ushbu maqola Omon Matjon she'rlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, ijodkorning okkazional, shuningdek, shevaga xos so'zlardan foydalanish mahorati, uning ijodi va tilining o'zbek adabiy tili rivojidagi o'rnini belgilash masalasi haqida so'z yuritilgan.

Аннотация. В статье анализируются окказиональные и диалектные слова поэта Амана Матжона с точки зрения лингвопоэтики и посредством этого определяется место творчества и языка поэта в узбекском литературном языке.

Annotation. In the article, the occasional dialect words of Aman Matchan are analyzed from the point of view of lingua-poetics and it is spoken about to determine the place of the poet's work and language in literary Uzbek.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, okkazional so'zlar, shevaga xos so'zlar, so'z boyligi, til boyligi, ekzotik so'zlar.

Ключевые слова: лингвопоэтические слова, окказиональные слова, о диалектных словах, богатство языка, экзотические слова.

Key words: lingua-poetics, occasional words, dialect words, word stock, language as wealth, exotic words.

Badiiy ijodda shoir va yozuvchilar doimo yangi so'z yasashga intilib keladilar. Bu qonuniyatdir. Chunki so'zning tasviriy imkoniyatidan mumkin qadar keng foydalanishga intilish, kutilmagan, g'ayriodatiy, yangi obrazlar yaratish ehtiyoji, ifodani yangicha tarzda berish zarurati ijodkorlarni ana shunday yo'l tutishga undaydi. Shu ehtiyoj tufayli adiblarning dunyoqarashigagina xos bo'lgan, faqat ularning asarlaridagina uchraydigan, umumxalq tilida ommalashib ketmagan yasalmalar, favqulodda o'zgacha qo'llashlar – okkazionalizmlar vujudga keladi.

Omon Matjon she'rlarida qo'shimcha qo'shish orqali hosil qilingan okkazionalizmlar shaxs oti hamda o'rin-joy oti yasovchi qo'shimchalar ishtirokida, shuningdek, sifat yasovchi qo'shimchalar ishtirokida yoki shakl yasovchi qo'shimchalar orqali hosil qilingan okkazionalizmlarga ajratish mumkin. Quyidagi she'riy parchada "aytmayman" ma'nosidagi so'z *aytmiram* shaklida qo'llangan. Bu sheva shakli emas, balki bo'lishsizlik shakli va shaxs-son qo'shimchasining shoir tomonidan o'ziga xos qo'llanishidir:

Olis yulduzlarga sirrim aytmiram,

Nolishimni tonggi el bilsa bo'ldi.

Quyidagi parchada – *simon* qo'shimchasi orqali sifat hosil qilingan:

Tog'lar yoyiq bayroqsimon

*Olov rangga bo'yalar.*¹ (114)

El va til so'zlariga *-lash* fe'l yasovchi qo'shimchasi va harakat nomining *-mak* shaklini qo'shish orqali o'zbek tilida mavjud bo'lmagan ikkita so'z hosil qilingan:

Ozod ellashmag-u tillashmak qayda

Hamon mun ostida sodlar ko'rindi. (90)

Bu she'riy parchadagi *ellashmak* so'zi "el ichida yurmoq", "elda yashamoq" ma'nosida, *tillashmak* so'zi esa "o'z ona tilisida bema'lol suhbatlashmoq, dardlashmoq" ma'nolarini ifodalagan.

¹ Омон Матжон. Иймон ёғдуси. Сайланма. Тошкент, 1994, 394-бет (Keyingi o'rinlarda ushbu kitobdan olingan she'riy parchalardan keyin qavs ichida sahifasi beriladi).

Omon Matjon chiroyli tasviriyl ifodalar ham yarata olgan: O‘zbekiston – **jannat ustaxonasi. Sehr hamshirasi** – sabo. (114)

Shoir ijodida moslashuv shaklidagi okkazonal birikmalar ham uchraydi:

Tong bosqoni alvon nurlar uchirib,

Qir bazmiga lola otar jo‘sh urib... (114)

Shoir ijodida ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmasini qisqartirish, soddalashtirish orqali hosil qilingan okkazonalizmlar ham uchraydi. Buni aynan sheva varianti deb hisoblamaslik lozim:

Yelkasida to‘rt faslni opichgan,

Tuprog‘iga yulduzlarni optushgan,

Har ne mushkul chiqsa mag‘rur olishgan,

Tanti o‘zbek, mard millatga bosh egdim.

Shoir she‘rlarida *sifatlovchi+sifatlanmish* tipidagi yasalmalar ko‘proq uchraydi. E‘tibor qilinsa, bu yasalmalar asosan *ot+ot* tipida bo‘lib, qo‘shma so‘z holida sifatga aylangan hamda predmet yoki shaxsning belgisini bildirgan: *oyqaboq go‘zal* kabi birikmalarda o‘ziga xos tasvir chizgilarini yuzaga keltirgan. Shu o‘rinda, keltirilgan okkazonalizmlar uchun tana a‘zolarining nomlari asos bo‘lganligini, yasalmalarning birinchi qismi esa ularning belgisini bildiruvchi so‘zga aylanganligini ko‘ramiz. Quyidagi misralarda esa sifat shaklida go‘zal okkazonal so‘zlar hosil qilinadi:

Samarqand – ko‘kyolqin minorlar yurti. (146)

To‘nyamoq bulutlar ustiga xazin.

Qayiqdek omonat chiqdi yarim oy... (112)

Boshqaruv shaklidagi so‘z birikmasining birikishi natijasida **qirg‘oqbuzar** (141) okkazonalizmi hosil qilingan. Bu so‘z *to‘lqinlar* so‘zi bilan biriktirilib, chiroyli bitishuvli birikma paydo bo‘lgan.

Shoir tomonidan “g‘ami ko‘p, g‘amli” mazmunidagi *purg‘am* so‘zi yaratilgan:

Eh, bilmaysan, – deydi u purg‘am, –

Bu dunyoning dard-u tashvishin! (103)

Omon Matjon so‘zni qadrllovchi shoir ekanligini ko‘ngil maxzanidan to‘kilgan ijod mahsulidan anglab olish qiyin emas. Darhaqiqat, u qo‘llagan so‘zlar ham o‘qilishi oson, talaffuzi ravon, xalq tiliga yaqin. Ayni damda, uning ijodida foydalanilgan ayrim she‘vaga xos bo‘lgan so‘zlarni tahlil qilamiz. Masalan, Xorazm shevalariga mansub *sirqildi* so‘zi “oqdi”, “tomdi” so‘ziga yaqin ma’noda ishlatiladi:

Yana ikki ko‘zdan sirqildi namlar,

Billurni yuvdilar pokiza g‘amlar.

Quyidagi parchada “qushning tumshug‘i” ma’nosi *chumduk* so‘zi orqali ifodalangan. Xorazm o‘g‘uz shevalarida bu so‘z yana *junduk* shakliga ham ega. She‘rdagi *chumduk urmoq* so‘zi “cho‘qilamoq”, “yerga tumshug‘ini urmoq” ma’nosida qo‘shma fe‘l shaklida qo‘llangan:

Bir kunlik nasiba poyida qushlar

Yerga ming bor chumduk ursalar sarson...

Shoir ijodida “daraxt” ma’nosini ifodalovchi *og‘och* so‘zi ko‘p qo‘llanadi. Shuningdek, jo‘nalish kelishigining qisqargan *-a* shakli o‘ziga xos vazifani bajarib keladi:

Turnalar uchdi,

Bulutlar ko‘chdi.

Og‘ochlarning barglari

Yerlara tushdi.

G‘amgin ko‘rdim seni bu kez-a,

Bahoringni bermagil kuza,

Tabassum qil!

Quyidagi misrada *ozon* so‘zi “ertalab”, “tongda”, “yorug‘lik” ma’nolarini ifodalaydi:

G'arbiga ketdik – tubsiz qozonga tushdik.

Sharqqa yurdik, yana ozonga tushdik.

Go'zal Matyoqubova shoir bilan suhbatlarning birida: “She'rlaringizga Xorazm shevasi so'zlari ustalik bilan singdirilgan... Sheva va dialektlarning she'rga singdirilishini qanday baholaysiz?” – deb so'raydi. Omon Matjon shunday javob beradi: “Sheva va dialekt tilimizning bir bo'lagi, aslida. Bu mening izohimsiz ham o'tmish adabiyotida o'z ifodasini topib bo'lgan. Turkolog olim Murod Ajining “Dashti qipchoq yovshani” asarini o'qisangiz, tilimizning, millatimizning tarixi biz o'ylagandan va biz bilgandan ham qadimiyroq ekaniga amin bo'lasiz. Xorazmga keladigan bo'lsak, u qadimgi Yunonistonga o'xshab tarix qatlarida qolib ketgandek. Asli, Xorazm shevasi yo'qolib bo'ldi hisob. Faqat shevaga oid lug'atlardagina durdona so'zlar qoldi. Hatto shu lug'atlarni topishning o'zi ham dargumon. Bu haqda ko'p bora o'z fikrlarimni aytganman”.¹

Omon Matjon ijodida **chochin** (yog'in-sochin), **munda** (bunda), **munida** (bunisida), **gunoyim** (gunohim), **qopilmoq** (jim bo'lmoq, to'xtamoq), **otiz** (dala, tomorqa) kabi shevaga xos so'z va grammatik shakllar faol ishlatilib, o'ziga xos poetik vazifalarni bajarishga xizmat qilgan.

Quyidagi misolda do'nar so'zi chulg'anmoq ma'nosini ifodalaydi:

Bir oq varaq ko'rsa, chaqmoqlar tinib,

Mehr yog'dusiga do'nar Toshkentda.

Xorazm shevalarida faol ishlatiladigan “rohat”, “farog'at”, “aysh” ma'nolarini ifodalovchi xaz so'zi shoir ijodida ham o'ziga xos ohangga ega:

Yer ekkanning yuz ranji, bir hazi bor,

Ko'zim yo'lda, ko'nglim yorda shu kunlar,

Umr hikmati – dast bakorda shu kunlar.

Adabiy tilda “ko'krak”, “to'sh” ma'nosidagi o'mgan so'zi shoir ijodida sheva shaklida qo'llangan.

O'mgani ohista tiklanayotgan

Xalqing-la bu ozod bayroqni ko'tar. (14)

Demak, biz Omon Matjon ijodini o'rganar ekanmiz, uning so'z qo'llashdagi mahorati, qanchalik boy tajribaga ega ekanligini anglash qiyin emas. Tahlil qilgan so'zlarimizning ayrimlari Xorazm shevasiga xos bo'lsa, ba'zilar shoir tomonidan yaratilgan okkazonal so'zlardir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shoir she'rlari qaysi mavzuda bo'lishidan qat'iy nazar, u inson mohiyati, uning ichki his-tuyg'ularini baralla dildan madh etadi, kuylaydi. Uning she'rlaridagi sheva so'zlari va o'ziga xos yasalmalar Xorazm koloritini aks ettirish, badiiyatni va ifodani go'zal qilishga xizmat qiladi.

Bu yil 14-fevralda Omon Matjon 75 yoshga to'ldi. Otaxon shoirimizni ushbu tabarruk yoshi bilan qutlab, xalqimiz ko'ngil xazinasidan joy oladigan, tilimiz jozibasini o'zida namoyon qiladigan yangidan yangi asarlar yaratadi, degan umiddamiz.

Ashurxon Matkarimova (AnDU)

SO'ZLASHUV NUTQIDA SHAXSIY MUNOSABAT KATEGORIYALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'zlashuv nutqidagi universal-semantik kategoriyalar erkalash, hurmat, kichraytirish kabi shaxsiy munosabatni ifodalovchi kategoriyalarni tahliliy o'rganishga doir xulosalar beriladi.

Аннотация. В данной статье идёт речь о выводах в отношении анализируемого изучения универсальных и семантических категорий, выражающих личное отношение, т. е. категория ласки, уважения в разговорной речи.

¹Шеъримнинг юраги уриб турибди. Шоир билан суҳбат (Гўзал Матёқубова суҳбатлашган). “Ёш ленинчи” газетаси, 1989 йил 13 сентябрь.

ILMIY AXBOROT

O.Matqurbonova. Omon Matjon she'rlarida okkazionalizm va shevaga xos so'zlarning ishlatilishi.....	82
A.Matkarimova. So'zlashuv nutqida shaxsiy munosabat kategoriyalari haqida ayrim mulohazalar.....	84
Д.Отамуродова. Машхур француз адиби Андре Моруа асарларида аёл маънавиятининг тасвири хусусида.....	87
G.Saparboyeva, V.Madiyorova. Stylistic Features of "Beowulf"	90

FANIMIZ ZAHMATKASHLARI

Р.Йўлдошев, З.Тожиев. Илмга бағишланган умр.....	93
---	----

TANQID VA TAQRIZ

Ф.Рузикулов. Пути развития языка и культуры.....	95
---	----

INDEKS 1072

